



MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK DRAMATURGIYASINI O'QITISHNING AHAMIYATI

Omanova Mubora

TDPU dotsent v.b., PhD

Mamatkarimova Fotima

TDPU talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasining ahamiyati, o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan asarlarni o'qitishning ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *mustaqillik, milliy, umuminsoniy, global muammo, drama, kinorivoyat, "Tanho qayiq", Orol bobo, suv muammosi*

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, hayotimizning barcha sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Ularga yangicha nazar bilan qarash, har bir sohani hurfikrlilik va milliylik tamoyillaridan kelib chiqqan holda shakllantirib, jamiyat hayotiga tadbiiq qilish, bugungi kunning eng asosiy vazifasi sifatida belgilandi. Shu jumladan, ta'lim sohasi ham bu borada yetakchi o'rinlarni egallaydi. Biron-bir imorat qad ko'tarar ekan, uning asosi hisoblangan poydevoriga juda katta e'tibor qaratiladi. Mustahkam poydevor esa, shakllanayotgan imoratning umriboqiyiligini ya'ni kelajagini taminlaydi.

O'z mustaqilligini qo'lga kiritgan davlatning poydevori esa, bu albatta, shu jamiyat bag'rida o'sib kelayotgan yosh avlod hisoblanadi. Ularni milliy mafkura ruhida tarbiyalash, avvalo ona vatanga, o'z tarixiga hurmat va muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, yurtimizda olib borilayotgan ta'lim borasidagi islohotlarning asoslaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: "Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham - shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham shu xalq... Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi. Shunday ekan, biz ham ana shu xalqimizning milliyligi, urf-odatleri, bag'rikengligi va mehmondo'stligini butun dunyoga tanitishimiz, milliyligimiz va umuminsoniy qadriyatlarimiz tarannum etilgan asarlarni o'rganishimiz va o'rgatishimiz lozimdir" [1; 1].



Adabiyot darslarida o'quvchilarning o'z ma'naviy kamolotlarini ta'minlashda bevosita ishtirok etishlari, ijodiy fikrlashi, mustaqil tarzda bilim egallash ko'nikmalarini shakllantirish va uni rivojlantirishlari, mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llay bilishlarida dramatik asarlar muhim ahamiyat kasb etadi.

“So'z san'atining asosiy turlaridan biri bo'lgan drama qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib harakat, amal-faoliyat degan ma'nolarni anglatadi. Dramatik asarlar, asosan, sahnada ijro etishga mo'ljallangan bo'lib, suhbat-dialog shaklida yoziladi. Dramatik turga drama, komediya, tragediya (fojea) singari janrlar mansubdir. Bunday bitiklarda voqelik asarda bevosita ishtirok etuvchi shaxslarning xatti-harakatlari va nutqi orqali ochiladi. Dramatik asarlar sahnaga moslab yoziladi” [2; 5].

Ta'lim amaliyotida dramatik asarlarni o'rganishda avval ularning matni bilan tanishish amalga oshiriladi. Agar imkoni bo'lsa sahnada ko'rish, yoki tasmaga yozilgan variant bilan tanishish juda samarali usul hisoblanadi.

“O'zbek dramaturgiyasi tarixida mustaqillik davri alohida bosqich sanaladi. Bu davr o'zbek dramalarida o'zbekona turmushning eng muhim qirralariga, milliy qadriyatlar va urf-odatlar talqiniga alohida diqqat qaratiladi. Boshqa adabiy tur va janrlar bilan dramatik asarlar taqqoslanganida uning poetik xususiyati va tarkibiy tuzulishini yaxshi anglab olish mumkin.

Dramatik asar voqelikning o'ziga xos badiiy talqini bo'lgani uchun obrazlar tabiati ham dialogik va monologik nutq, xatti-harakat, imo-ishora, sukut, yig'i yoki kulgi kabi sahnaga xos tasviriy-psixologik vositalar yordamida ochiladi. Tabiiyki, bu omillar sahna asarining umrboqiyiligini belgilaydi” [3; 105] .

Mustaqillik davri dramaturgiyasi mustaqil yurt o'quvchilarining ma'naviy yuksak, axloqi pok, ruhiy olami mustahkam bo'lishiga munosib hissa qo'shadi.

Jumladan, mustaqillik davri dramaturgiyasidan namuna sifatida Erkin A'zamning “Tanho qayiq” asari berilgan. Asar Orol bobodan dramatik rivoyat hisoblanadi .

Dramatik asar qatnashchilari: Orol bobo, Amet, Jumaboy , Tilovbergan, Genjamurod, O'tagan maxsum, Qalimbet , Gulxadicha

Dramatik asarlarni sinfda rollarga bo'lib o'qitish juda yaxshi samara beradi.



Buni "Men aktyorman" metodi orqali amalga oshirsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu usul bilan darslarda o'quvchilar zerikmaydi, darsga diqqati jalb qilinadi. 11 - sinf darsligida mustaqillik davri dramaturgiyasidan birgina biz yuqorida tahlilga tortgan asar berilgan bo'lsa-da, bu asar hozirgi davr global muammolaridan biri bo'lgan orol dengizi qurishi tabiat va inson munosabatlariga bag'ishlangan.

"Tanho qayiq" kinorivoyati global muammolarning yoritilishi ya'ni orol dengizining qurishi va buning oqibatida insonlarning yashash sharoitlari og'irlashishi, ota va farzandlar munosabati yoritilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyaviy jihatdan o'quvchilarga kuchli ta'sir etadi. O'quvchilar qalbida Vatanga bo'lgan muhabbat, tabiatni sevish kabi jihatlarni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 15-fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 2017-yil 17-fevral.
2. Imomov B., Jo'rayev Z., Hakimova O'. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. - T.: O'qituvchi, 1995, 5- bet.
3. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. 11- sinf darsligi II-qism .- T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.2018 . 105-bet.
4. Erkin A'zam. Tanho qayiq. Kinorivoyat.//Erkin A'zam Tanho qayiq. Kinoqissalar. -T.: Sharq NMAK Bosh tahririyati, 2017. B. 171- 212-275 -bet